

MULOQOT TUSHUNCHASI VA SHAXSLARARO MULOQOTNING SHAXS RIVOJLANISHIDA TUTGAN O'RNI

Yuldasheva Mohinur Yangiboy qizi
Nukus Davlat Pedagogika Instituti
Pedagogika fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola orqali siz shaxslararo munosabatlar va muloqot jarayoni uning turlari haqida malumotlarga ega bolasiz.

Kalit so'zlari. Rasmiy muloqot, Norasmiy muloqot, Pertseptiv muloqot, Kommunikativ muloqot, Interaktiv muloqot.

Muloqot faqat insonlarga xos bolgan jarayondir. Muloqot odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida muhimlaridan biri hisoblanadi. Muloqot bu shaxslararo munosabatda yetakchi o'rini egallaydi. Shaxslararo muloqot bu insoning rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Muloqot ikki insoning o'zaro suhbat qilishidir. Inson hayotida muloqot alohida jarayon yoki faollikning mustaqil shakli sifatida mavjud bo'lmaydi. Muloqot bu odamlarning birgalikdagi faoliyati ehtiyojlaridan kelib chiqadigan jarayondir. Ya'ni, muloqot jarayoni har bir shaxsning jamiyatda bajaradigan faoliyati (mehnat, o'qish, o'yin, ijod qilish va b.) o'zaro munosabat va o'zaro ta'sir shakllarini o'z ichiga oladi. Muloqot bu shaxsning rivojlanishida va jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishida yordam beruvchi jarayon.

Muloqot odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida yetakchi o'rinni egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojni — jamiyatda yashash va o'zini shaxs deb hisoblash bilan bog'liq ehtiyojini qondiradi. Shuning uchun ham uning har bir inson uchun ahamiyati kattadir. Muloqot - odamlarning birgalikdagi faoliyati ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-biri bilan o'zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Ya'ni, har bir shaxsning jamiyatda bajaradigan faoliyati (mehnat, o'qish, o'yin, ijod qilish va b.) o'zaro munosabat va o'zaro ta'sir shakllarini o'z ichiga oladi. Har qanday yolg'izlik va muloqotning etishmasligi odamda muvozanatsizlik, hissiyotga beriluvchanlik, xadiksirash, xavotirlanish, o'ziga ishonchsizlik, qayg'u, tashvish hislarini keltirib chiqaradi. Shunisi qiziqki, yolg'izlikka mahkum bo'lganlar ma'lum vaqt o'tgach ovoz chiqarib, gapira boshlasharkan. Bu avval biror ko'rgan yoki his qilayotgan narsasi xususidagi gaplar bo'lsa, keyinchalik nimagadir qarab gapiraverish ehtiyoji paydo bo'lar ekan. Shaxsning muloqotga bo'lgan ehtiyojining to'la qondirilishi uning ish faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Odamlar, ularning borligi, shu muhitda o'zaro ikki insoning gaplashish imkoniyatining mavjudligi fakti ko'pincha odamni ishlash qobiliyatini ham oshirarkan, ayniqsa, gaplashib o'tirib qilinadigan ishlar, birgalikda yonma- yon turib bajariladigan operatsiyalarda odamlar o'z oldida

turgan hamkasbiga qarab ko'proq, tezroq ishlashga kuch va qo'shimcha iroda topadi. To'g'ri, bu hamkorlikda o'sha yonidagi odam unga yoqsa, ular o'rtasi muloqot jarayoni o'ziga xos ravishda murakkab bo'lib, bunda 3 - xil bosqich mavjud. Dastlabki birinchi bosqich — odamning o'z-o'zi bilan muloqotidir. T.Shibutani «Ijtimoiy psixologiya» darsligida: «Agar odam ozgina bo'lsa ham o'zini anglasa, demak, u o'z-o'ziga ko'rsatmalar bera oladi»— deb to'g'ri yozgan edi. Odamning o'z-o'zi bilan muloqoti aslida uning boshqalar bilan muloqotining harakterini va hajmini belgilaydi. Agar odam o'z-o'zi bilan muloqot qilishni odat qilib olib, doimo jamiyatdan o'zini chetga tortib, tortinib yursa, demak u boshqalar bilan suhbatlashishda, til topishishda jiddiy qiyinchiliklarni boshdan kechiradi, deyish mumkin. Demak, boshqalar bilan muloqot— muloqotning ikkinchi bosqichidir. A.N.Leontev o'zining «Psixika taraqqiyotidan ocherklar» kitobida muloqotning uchinchi bosqichi—avlodlar o'rtasidagi muloqotning ahamiyati to'g'risida shunday deb yozadi: «Agar barcha katta avlod o'lib ketganida, insoniyat turi yo'q bo'lib ketmasdi, lekin jamiyatning taraqqiyoti ancha orqaga surilibgina emas, balki yo'qolib ham ketishi mumkin edi». Haqiqatan ham, avlodlararo muloqotning borligi tufayli har bir jamiyatning o'z madaniyati, madaniy boyliklari, qadriyatlari mavjud bo'ladiki, buning ahamiyatini tushungan insoniyatning eng ilg'or vakillari uni doimo keyingi avlodlar uchun saqlab keladilar hamda ta'lim, tarbiya va kundalik muloqot jarayonida uni avlodlar avlodga uzatadilar. Har qanday muloqot yo rasmiy yoki norasmiy tusda bo'ladi. Agar rasmiy muloqot odamlarning jamiyatda bajaradigan rasmiy vazifalari va xulq-atvor normalaridan kelib chiqsa, masalan, rahbarning o'z qo'l ostida ishlayotgan xodimlar bilan muloqoti, professorning talaba bilan muloqoti va h., norasmiy muloqot — bu odamning shaxsiy munosabatlariga tayanadi va uning mazmuni o'sha suhbatdoshlarning fikr-o'ylari, niyat-maqсадlari va emotsional munosabatlari bilan belgilanadi. Masalan, do'stlar suhbatdoshi, poezdda uzoq safarga chiqqan yo'lovchilar suhbatlari, tanaffus vaqtida talabalarning sport, moda, shaxsiy munosabatlar borasidagi munozaralari. Odamlarning asl tabiatlariga mos bo'lgani uchun ham norasmiy muloqot doimo odamlarning hayotida ko'proq vaqtini oladi va bunda ular charchamaydilar. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, odamda ana shunday muloqotga ham qobiliyatlar kerak, ya'ni uning qanchalik sergapligi, ochiq ko'ngilligi, suhbatlashish yo'llarini bilish, til topishish qobiliyati, o'zgalarni tushunishi va boshqa shaxsiy sifatleri kundalik muloqotning samarasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun hamma odam ham rahbar bo'lolmaydi, ayniqsa, pedagogik ishga hamma ham qo'l uravermaydi, chunki buning uchun undan ham rasmiy, ham norasmiy muloqot texnikasidan xabardorlik talab qilinadi.

Kommunikativ muloqot. Bu bir tomonlama axborot uzatiladi. Muomala o'z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilar bilan o'zaro axborot almashuvini qamrab olgan bo'lib. kommunikativ muloqot sifatida tavsiflanishi mumkin. Insonlar bir - birlari bilan

muloqotga kirshi jarayonida muloqotning muhim vositalari bo'limi, til va nutq faoliyati bevosita muhim ahamiyat kasb etadi. Interaktiv muloqot. Muhim jihati ikki tomonlama bir-binga ta'sir etishdir. Muloqotga kirishuvchi insonlar o'zaro ta'sir etishda, insoning tarbiyaviy faoliyatiga nafaqat so'z orqali, balki fikr almashinuv, xatti - harakat va xulq-atvori bilan o'zaro ta'sir o'tkazishi tushuniladi. Perseptiv muloqot. Insonlar va insonlar jamoasi o'zaro bir-birlarini idrok qilishi, anglashi tushuniladi. Bunda muloqotga kirishuvchilar o'zaro bir-birlarini idrok qilish asosida ulardan biri ikkinchisining ishonchini qozonadi, aqlli, farosatli, tajribali, yuksak tayyorgarlikka ega barkamol inson sifatida idrok qilinadi. Muloqotning har uchala tomonini yaxlit olib qaraganda o'zaro hamkorlik faoliyatini tashkil qilishning usullari va unda ishtirok etuvchilarning munosabatlari yaqqol namoyon bo'ladi. Muloqotning kommunikativ tomoni deganda, uning shaxslararo axborotlar, bilimlar, g'oyalar, fikrlar almashinuvi jarayoni sifatidagi vazifalari nazarda tutiladi. Bu jarayonning asosiy vositasi bo'lib til xizmat qiladi. Til shaxslar o'rtasida aloqa vositasi bo'lib, uning yordamida kishilar bilgan ma'lumotlari, axborotlar, g'oyalar va h.k bir-birlariga etkazadilar. Ma'lumki, aloqa vositasi sifatida nutqning asosan 2 turi farqlanadi: yozma nutq hamda og'zaki nutq. Og'zaki nutqning o'zi dialogik va monologik turlarga bo'linadi. Dialogik nutqning mazmuni, uning xarakteri, davomiyligi muloqotga kirishgan shaxslarning shaxsiy qarashlariga, qiziqishlariga, bir-birlariga bo'lgan munosabatlariga, maqsadlariga bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham o'qituvchi bilan o'quvchining, siyosiy rahbarlarning, diplomatlarning, ko'chada uchrashib qolgan dugonalarning dialogik suhbatlari bir-biridan farq qiladi. Har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy qiyofasi, fazilatlarini, hatto nuqsonlari ham muloqot jarayonining mahsulidir.

Har qanday muloqotning eng sodda vazifasi — suhbatdoshlarning o'zaro bir-birlarini tushunishlarini ta'minlashdir. Bu o'zbeklarda samimiy salom-alik, suhbatdoshni ochiq yuz bilan kutib olishdan boshlanadi. Bu jihat milliy o'ziga xoslikka ega. Yana bir muhim vazifasi kutubxonasi ijtimoiy tajribaga asos solish bo'lib, odam bolasi faqat odamlar orasida ijtimoiylashadi, o'ziga zarur insoniy xususiyatlarini shakllantiradi. Muloqotning yana bir muhim vazifasi — u odamni u yoki bu faoliyatga hozirlaydi, ruhlantiradi. Kishilar guruhidan uzoqlashgan, ular nazaridan qolgan kishining qo'li ishga bormaydi. Har qanday yolg'izlik va muloqotning yetishmasligi odamda muvozanatsizlik, hissiyotga beriluvchanlik, hadiksirash, xavotirlanish, o'ziga ishonchsizlik, tashvish hislarini keltirib chiqaradi. Shaxsning muloqotga bo'lgan ehtiyojining to'la qondirilishi uning ish faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Kishilar, ularning borligi, shu muhitda o'zaro gaplashish imkoniyatining mavjudligi fakti ko'pincha odamning ishlash qobiliyatini oshiradi, ayniqsa, gaplashib o'tirib qilinadigan ishlar. Odamlar yonidagi hamkasbiga qarab ko'proq, tezroq ishlashga kuch va qo'shimcha iroda topadi. Bu hamkorlikda o'sha yonidagi odam unga yoqsa, ular o'rtasida o'zaro simpatiya hissi bo'lsa, unda odam ishga «bayramga kelganday» keladigan bo'lib qoladi.

Shuning uchun amerikalik olim Dj. Moreno sotsiometrik uslubni ishlab chiqqan edi. Demak, muloqot kishilarning jamiyatda o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining ichki psixologik mexanizmini tashkil etadi. Muloqotning psixologik vositalari va darajalar. Muloqot ijtimoiy psixologik hodisa sifatida ijtimoiy turmushning barcha sohalarida ishtirok etib, hamkorlik faoliyatining moddiy, ma'naviy, madaniy, emosional, motivasion qirralarining ehtiyoji sifatida vujudga keladi. Insonda yuzaga keladigan har xil ehtiyojlarni maqsadga muvofiq ravishda qondirish muloqot maromiga bog'liq bo'lib. shaxslararo munosabat, barkamol avlod, komil inson g'oyalarini anglatadi. Mazmun-maqsadlari va vositalariga ko'ra muloqotni bir nechta turlarga bo'lish mumkin. Mazmuniga ko'ra, u moddiy (faoliyat jismlari va mahsulotlari almashinuvi), kognitiv (bilimlar almashinuvi), konditsiv (ruhiy va jismoniy holatlar almashinuvi), motivatsion (xohishlar, maqsadlar, qiziqishlar, motivlar, ehtiyojlar almashinuvi), faoliyatli (harakatlar, muolajalar, malakalar, ko'nikmalar almashinuvi) bo'lishi mumkin.

Moddiy muloqotda sub'ektlar, shaxsiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lgan holda, uning mahsulotlari bilan almashadilar, ular o'z navbatida dolzarb ehtiyojlarni qondirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Konditsiyali muloqotda odamlar o'zlarini ma'lum jismoniy yoki ruhiy holatga keltirishga mo'ljallangan bir-birlariga nisbatan o'zaro ta'sir ko'rsatadilar. Masalan, kayfiyatni ko'tarish yoki, aksincha, uni tushirib yuborish; bir-birini qo'zg'atib yuborish yoki tinchlantirish, va, oqibatda, bir-birining kayfiyatiga ma'lum ta'sir o'tkazish. Motivatsiyali muloqotning mazmuni bir-biriga ma'lum istak, mayllarni etkazish yoki ma'lum yo'nalishda harakatlanishga shay bo'lishlikdan iborat. Bunday muloqot sifatida insondagi biror maqsadga, boshqa odamda biror-bir intilishning paydo bo'lishi yoki yo'qolishi, kimdadir harakatga bo'lgan ma'lum maylning yuzaga kelishi, qandaydir ehtiyojning dolzablashtirilishi uchun etishish istagining kuchliligi kabi vaziyatlarni keltirish mumkin. Kognitiv va faoliyatli muloqotning ifodasi bilish yoki o'quv faoliyatining turlari bilan bog'liq muloqot bo'la oladi. Bunda sub'ektdan sub'ektga dunyoqarashni kengaytiruvchi, layoqatlarni rivojlantiruvchi va takomillashtiruvchi axborot etkaziladi.

Maqsadlariga ko'ra, muloqot xizmat ko'rsatish ehtiyojlariga muvofiq holda biologik va ijtimoiy turlarga bo'linadi. Biologik – bu organizmni mustahkamlash, muhofazalash va rivojlantirish uchun zarur bo'lgan muloqot. U asosiy hayotiy ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq. Ijtimoiy muloqot maqsadlari shaxslararo aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, individ shaxsiy kamolotining interxususiy munosabatlarini o'rnatish va rivojlantirishdan iborat. Biologik va ijtimoiy ehtiyojlarni nechta turga ajratish mumkin bo'lsa, muloqotning ham shuncha xususiy maqsadlari bo'lishi mumkin.

Vositalariga ko'ra, muloqot bevosita va vositali, to'g'ridan –to'g'ri va bilvosita bo'lishi mumkin. Bevosita muloqot tirik mavjudotga tabiat tomonidan berilgan tabiiy

organlar: qo'llar, bosh, tana, tovush paylar va boshqalar yordamida amalga oshiriladi. Vositali muloqot muloqot va axborot almashinuvni tashkil etishda maxsus vosita va qurollardan foydalanish bilan bog'liq. Bular yo tabiiy (yog'och, erdagi izlar va h.k.) Yo madaniy (belgilar tizimlari, matbuot, radio, televidenie, internet va h.k.) Jismlar. To'g'ridan-to'g'ri muloqot shaxsiy aloqalar va muloqot aktining o'zida qatnashayotgan odamlarning bir-birini bevosita idrok qilishini belgilaydi, ularga, masalan, jismoniy aloqalar, odamlarning bir-birlari bilan suhbatlashishlari, bir-birlarining harakatlarini bevosita ko'rib turgan holda, ularga javob qaytarishlari kiradi. Bilvosita muloqot vositachilar sifatida ish yuritadigan boshqa odamlar orqali amalga oshiriladi.

Muloqot turlari orasida, shuningdek, ish bo'yicha va shaxsiy, instrumental va maqsadli kabi turlarni ajratish mumkin. Ish bo'yicha muloqot, odatda, xususiy qism sifatida insonlarning hamkorlikdagi samarali faoliyatiga kiritilgan va bu faoliyatning sifatini oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Uning mazmuniga odamlar ichki dunyosining muammolari emas, balki ularning nima bilan mashg'ulliklari kiradi. Ish bo'yicha muloqotda suhbatdoshning shaxs, xarakter, yosh, kayfiyat xususiyatlari hisobga olinadi, lekin ishdan ko'riladigan manfaat shaxsiy ixtiloflardanda ustun va muhimdir. Ish bo'yicha muloqotdan farqli ravishda shaxsiy muloqot, aksincha, asosan, ichki xarakterning psixologik muammolariga, inson shaxsini chuqur va yaqinlik bilan ochib beradigan: hayot mazmunini izlash, muhim insonga, atrofdagi voqealarga, qandaydir ichki nizolini hal etishga nisbatan munosabatini aniqlashga qaratilgan. Instrumental muloqot sifatida mustaqil ehtiyoj bilan rag'batlantirilmaydigan, maqsadga aylanmagan, lekin muloqot aktining o'zidan qoniqishdan tashqari, qandaydir boshqa maqsadga qaratilgan muloqotni keltirish mumkin. Maqsadli – bu o'z holicha maxsus ehtiyojni, ushbu vaziyatda muloqotga bo'lgan ehtiyojni qondirish vositasi bo'lib xizmat qiluvchi muloqot.

Ta'kidlab o'tish lozimki, odamlarning amaliy faoliyatida muloqotning quyidagi turlarini ajratadilar:

1. «niqoblar aloqasi» - suhbatdoshning shaxs xususiyatlarini tushunish va hisobga olishga intilish mavjud bo'lmagan rasmiy muloqot bunda haqiqiy hissiyotlar, istaklar, munosabatlarni yashirish imkonini beruvchi rasmiy iboralar, odatiy xushmuomalalik, dimog'dorlik niqoblari, yuz, imo-ishora ifodalarining to'plami qo'llaniladi.

2. Oddiy muloqotda boshqa odamga zarur yoki xalal beruvchi ob'ekt sifatida baho beradilar: agar zarur bo'lsa, aloqaga faollik bilan kirishadilar, agar xalal beradigan bo'lsa, – itarib yuboradilar, yoki tahdidli qo'pol iboralarni qo'llaydilar.

3. Rasmiy-rolli muloqot – bu sheriklarning ijtimoiy rollari darajasidagi muloqot (boshliq – qo'l ostidagi xodim, sotuvchi – xaridor, servis xizmati xodimi –

mijoz). Bunda ma'lum qoidalar va xohishlar asosida ish yuritilib, muloqot mazmuni va vositalari ularga bo'ysundirilgan.

4. Boshqariladigan muloqot suhbatdoshning shaxs xususiyatlaridan kelib chiqib, turli usullarni (xushomad, qo'rqitish, aldov va boshqalar) qo'llagan holda undan foyda olishga qaratilgan.

5. Dunyoviy muloqot – bu turning mohiyati biror mavzuga oid bo'lmasligidan iborat, ya'ni, odamlar o'z fikrlarini emas, balki bunday vaziyatlar uchun umumiy bo'lgan fikrlarni bildiradilar.

6. Havoyi muloqot – bu muloqot uchun muloqot.

7. Do'stlarning ma'naviy, shaxslararo muloqoti vaqtida istalgan mavzuni qo'zg'atish va bir-birlarini yuz ifodasi, tovush ohangi va harakatlar yordamida tushunish mumkin.

Inson hayotida muloqot alohida jarayon yoki faollikning mustaqil shakli sifatida mavjud bo'lmaydi. U jadal va ko'p tomonlama muloqotsiz paydo bo'lmaydigan individual yoki guruhli amaliy faoliyatga kiradi.

Odamlar o'rtasidagi muloqotning eng muhim turlari verbal va noverbal muloqotdir. Noverbal muloqot til, tovush nutqining qo'llanilishiga asoslanmagan bo'lib, bu mimika, imo-ishoralar, pantomimika, sensor yoki tana orqali aloqalar vositasidagi muloqot. Bu boshqa odamdan qabul qilinadigan taktil, ko'rish, eshitish, hid bilish, hamda, boshqa sezgi va tasavvurlar. Odam muloqotining noverbal shakl va vositalarning ko'pchiligi tug'ma bo'lib, faqat o'ziga o'xshashlar bilan emas, balki, boshqa tirik jonzotlar bilan ham hissiyot va hulq-atvor darajalarida hamfikrlikka erishish orqali o'zaro ta'sir ko'rsatishga imkon beradi. Verbal muloqot faqat insonga xos bo'lib, zarur shart sifatida tilni o'zlashtirishni belgilab beradi. Nutq muloqot vositasi sifatida bir vaqtning o'zida ham axborot manbai sifatida, ham suhbatdosh bilan o'zaro ta'sirlashuv vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Buyuk shoir sa'diyning so'zlarini yodda tutish lozim: «aqling bormi yoki yo'q, buyukmisan yo kichik, biz bilmaymiz, sen bir so'z atmaguningcha».

Verbal (nutq) muloqot tarkibiga: so'zlar, iboralar ma'nosi va mohiyati kiradi. Asosiy o'rinni so'zning qo'llanilish aniqligi, uning ifodalanishi va hammabopligi, tovushlar, so'zlar talaffuzi, ohang ifodasi va mohiyati egallaydi. Nutqdagi tovush hodisalari: nutq jadalligi, tovush balandligi modulyasiyasi, tovush toni, nutq vazni, tovush sifati, ohangi, aniqligidan iborat. Tovush sifatining ifodalanishi: o'ziga xos maxsus tovushlar: kulgu, hiqillash, yig'i, pichirlash, xo'rsinishlar va boshqalar; ajratuvchi tovushlar – bu yo'tal; ahamiyatsiz tovushlar – tanaffuslar, shuningdek, nazalizatsiya tovushlari – «xm, xm», «e-e-e», «o-o-o» va boshqalar.

Tadqiqotlarga ko'ra, odam kommunikatsiyasining har kungi aktida so'zlar – 7%, tovush va ifodalar – 38%, nutqiy bo'lmagan o'zaro ta'sir – 53%ni tashkil etadi. Publitsiy aytganidek: «ovozi orqali gaplashamiz, butun tanamiz orqali

suhbatlashamiz». Kundalik muloqotda odamlar ko'proq quyidagi fanlar o'rganadigan muloqotning noverbal vositalaridan foydalanadilar: kinestetika (inson hissiyotlarining tashqi ifodalanishi), mimika (yuz mushaklarining harakati), imo-ishoralar (tana alohida qismlarining ishoratli harakatlari), pantomimika (butun tana: gavda holati, qomat, egilish, yurish harakatlari), takesika (muloqot vaziyatidagi yaqinlashishlar: qo'l siqish, o'pishish, tegib ketish, siypalash, itarib yuborish va h.k.), proksemika (odamlarning muloqot vaqtida fazoda joylashishi, inson aloqalarida quyidagi masofalar sohalari ajratadilar: yaqinlik sohasi (15-45 sm), shaxsiy yoki xususiy soha (45-120 sm), ijtimoiy soha (120-400 sm), ommaviy soha (400 sm dan ortiq)). Mimika, nigoh, imo-ishoralar – noverbal muloqotning ko'proq ma'lumot olish mumkin bo'lgan vositalari. Peshona, qoshlar, og'iz, ko'zlar, burun, iyak – bu yuz qismlari insonning asosiy hissiyotlari: hijron, g'azab, shodlik, ajablanish, qo'rqinch, nafrat, baxt, qiziqish, qayg'u va boshqalarni ifodalaydilar.

Muloqot turlaridan tashqari, uning ba'zi shakllarini ham ajratish mumkin, bular: rasmiy-ish yuzasidan, mutaxassislik, xususiy, ommaviy, pedagogik muloqot, autokommunikatsiya (o'zi bilan muloqot)lardir. Muloqot o'zining maxsus masalalari hal etiladigan ma'lum davrlarga ega. Eng mas'uliyatli davr tayyorgarlik davri – muloqotni rejalashtirish, o'zi uchun muloqot natijalariga qaratilgan mayllarni aniqlab olish zarur. Muloqotning birinchi bosqichi – aloqaga kirishish. Bunda vaziyatga kirishish, sherikning holati, kayfiyatini his etish, o'zi kirishib ketib, boshqasiga ham yo'nalishini belgilab olishga imkon yaratish muhimdir. Bu davr ruhiy aloqa o'rnatilishi bilan yakunlanadi. So'ngra qandaydir muammo, tomonlarning vazifasi va mavzuni ishlab chiqishda diqqatni jamlash davri boshlanadi. Keyingi bosqich – motivatsion zondaj. Uning maqsadi – suhbatdoshning motivlari va qiziqishlarini anglash. So'ngra diqqatni mustahkamlash bosqichi boshlanadi, keyin esa fikrlarda nizolilar bo'lsa, asoslash va ishontirish bosqichi keladi. Va, nihoyat, natijalarni qayd etish bosqichi boshlanadi. Agar mavzular ko'rib chiqilgan bo'lsa yoki sherik notinchlik alomatlarini namoyon qilgan taqdirda muloqotni yakunlash zarur. Muloqotni doimo davom ettirish istiqboli bilan yakunlash kerak. Eng oxirgi daqiqalar, yakuniy so'zlar, qarashlar, qo'l siqishlar o'ta muhimdir, ba'zida ular ko'p vaqt davom etgan suhbat natijasini butunlay o'zgartirib yuborishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkin, ushbu maqola orqali siz muloqot nima ekanligini bilib olishingiz mumkin. Muloqotning turlari va vositalari, usullari haqida kerakli bilimlarga ega bo'lasiz. Shaxslararo muloqotning shaxs rivojlanishidagi o'rnini haqida ham ma'lumotlarga ega bo'lasiz. Bu maqola muloqot bu eng kerakli va zarur jarayon ekanligini tushinib olishingizga yordam beradi. Muloqot qilishda qaysi vositalar eng muhimi ekanligi haqida bilib olishingiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.MAQSUDOVA."MULOQOT PSIXOLOGIYASI" TOSHKENT "TURON-IQBOL" 2006.
2. E.G'OZIYEV "UMUMIY PSIXOLOGIYA" TOSHKENT 2002.
3. M.E.ZUFAROVA "UMUMIY PSIXOLOGIYA" TOSHKENT-2010.